

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI “MISIS”NING
OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

BAYNAZOV UMID RAIMOVICH

**ANGREN KO‘MIR KONIDA KONVEYER TRANSPORTINI
EKSPLUATATSIYA QILISH PARAMETRLARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

04.00.16 – Kon mashinalari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
of technical sciences**

Baynazov Umid Raimovich

Angren ko‘mir konida konveyer transportini ekspluatatsiya qilish parametrlarini optimallashtirish3

Байназов Умид Раимович

Оптимизация эксплуатационных параметров конвейерного транспорта на угольном разрезе «Ангренский»19

Baynazov Umid Raimovich

Optimization of operating parameters of conveyor transport at the Angren coal mine.....37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....40

.

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI “MISIS”NING
OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

BAYNAZOV UMID RAIMOVICH

**ANGREN KO‘MIR KONIDA KONVEYER TRANSPORTINI
EKSPLUATATSIYA QILISH PARAMETRLARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

04.00.16 – Kon mashinalari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.2.PhD/T2818 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.misis.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Toshov Javoxir Buriyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Raxutin Maksim Grigorevich
texnika fanlari doktori, professor

Maxmudov Azamat Maxmudovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

“Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ

Dissertatsiya himoyasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISIS”ning Olmaliq shahridagi filiali huzuridagi DSc.22/30.12.2019.T.98.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22-57; e-mail: info@misis.uz.

Dissertatsiya bilan Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISIS”ning Olmaliq shahridagi filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22-57.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “___” _____ № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.Ya. Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

G.S. Nutfulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

Sh.Sh. Zairov

Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ko‘mirning energetika, kimyo, meditsina va boshqa sohalarda keng qo‘llanilishi ko‘mir mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ortib borishiga olib kelmoqda. Bu ko‘mir sanoatini rivojlantirish, sifatli qazib olish, tannarxini pasaytirish va mahsulotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishda ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kundagi yer yuzidagi ko‘mirning umumiy geologik zaxiralari 14-16 trillion tonnani tashkil etadi, shundan o‘rganilgani - 5 trillion tonnadan ortiqdir. Ko‘mir qazib olish asosan ochiq usulda amalga oshirilib, mazkur usulda qazib olishda tog‘ jinslarini tashish jarayoni qimmat texnologiya bo‘lib, mahsulotning tannarxini qimmatlashishiga olib keladi. Ko‘mirni sifatli tashish va energiyatejamkor texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, tashish jarayonlarini loyihalash masalalarini hal etishga e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda tog‘ jinslarini tashishda tasmali konveyer eng tejamkor transport vositasi hisoblanadi. Biroq ularni ishlatish bilan bog‘liq bir qator muammolar tufayli so‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab kon korxonalarini unumdorligi past va yuqori ekspluatatsion xarajatlarga ega bo‘lgan temir yo‘l yoki avtomobil transportiga o‘tishga majbur bo‘lmoqda. Tog‘ jinslarini tashish jarayonini takomillashtirish, samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, tog‘ jinslarini tashishda energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni qo‘llash, ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini optimallashtirish, ularni loyihalashda ilg‘or usullarni joriy etish, zamonaviy dasturiy ta‘minotdan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda Angren, Boysun va Sharg‘un ko‘mir konlarida energiya tejaydigan va samarador usullarini qo‘llash, yangi energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni yaratish, investitsiyon loyihalarni amalga oshirish, ko‘mir va ko‘mir mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish hajmini oshirish, zamonaviy qayta ishlash mashinalari va uskunalarni foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “...mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish”¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tog‘ jinslarini tashish tezligi, barqarorligi va chidamliligini muvozanatlashtirish talablarini hisobga olgan holda, zamonaviy axborot usullari asosida tasmali konveyerning optimal konstruksiyasini yaratish va modellashtirishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son va 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni.

to'g'risida"gi PF-158-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-iyundagi "2017-2021-yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi PQ-3054-son va 2019-yil 07-martdagi "O'zbekko'mir aksiyadorlik jamiyatini boshqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4497-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. "Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ochiq kon ishlarida tog' jinsini tashishda tasmali konveyerlarni modellashtirish va takomillashtirish bo'yicha Anistratov Yu.I., Annakulov T.J., Atakulov L.N., Galkin V.I., Dmitriev V.G., Malgin O.N., Poderni R.Yu., Rakishev B.R., Rahimov V.R., Raimjanov B.R., Rzhhevskiy V.V., Toshov J.B., Shemetov P.A., Sheshko E.L., Agata Kirjanów-Błażeja, Chao Wang, Gabriel Fedorko, Joseph Schall, John R. Rounds, Jaime Maria, Liu Hongyuan, Lech Gładysiewicz, Ogden R.W., Özel Tuğrul, Piotr Bortnowskia, Qiu Pang, Robert Burduk, Robert Krol, Staffan Jacobson va boshqa olimlar ko'mir qazib olish texnologiyasi va foydali qazilmalarni tashish tizimini takomillashtirishda salmoqli natijalarga erishdilar. Biroq, hozirgi kunga qadar konveyer tasmalari bilan ta'sir etuvchi tog' jinslarining kuchlanish-deformatsiya holatini turli foydalanish sharoitlarida o'rganish masalalari, shuningdek, tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda, konveyer liniyasining qayta yuklash punktlariga bo'lgan masofalarni optimallashtirish bo'yicha muammolar to'liq o'rganilmagan. Kon massasini konveyer orqali turli tezliklarda tashish jarayonida ta'sir kuchlarini e'tiborsiz qoldirish natijasida hal qilinmagan muammolar mavjud.

Shu tariqa, tog' jinslarining fizik-mexanik xususiyatlariga bog'liq holda qayta yuklash punktining maqbul ko'rsatkichlarini aniqlash uslubini ishlab chiqish, shuningdek, kon massasini tashishda konveyer tezligining optimal parametrlarini belgilash, chekli elementlar usuli asosida tasmali konveyerning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini modellashtirish va optimallashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. Bu kon-geologiya sohasining dolzarb ilmiy-amaliy muammosi hisoblanadi va bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ko'chma maydalash va uzatish komplekslaridan foydalangan holda davriy uzluksiz texnologiyasini tadqiq etish, samaradorligi va ishonchliligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqish" (2017-2018 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qayta yuklash punktlarini modellashtirish va optimal geometrik parametrlarini aniqlash asosida konveyer transportini ekspluatatsiya qilish parametrlarini optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ochiq kon ishlarida konveyer transportini takomillashtirish va qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar tahlili;

konveyer tasmasining tog‘ jinsi bilan o‘zaro ta’sirini raqamli usullar yordamida tadqiq qilish;

chekli elementlar usuli asosida ANSYS dasturidan foydalanib tasmali konveyerning yuklash punktini modellashtirish;

raqamli modellashtirish asosida bunkerning turli balandliklarida konveyer tasmasi bilan tog‘ jinslarining o‘zaro ta’sirini tadqiq etish;

konveyer tasmasining tog‘ jinsi bilan o‘zaro ta’sirida kuchlanish-deformatsiya holatini aniqlash metodikasini ishlab chiqish;

ochiq kon ishlarida konveyer tasmasining xizmat muddati va ishonchligini uzaytiradigan qayta yuklash punktlari parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha uslub va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti ochiq kon ishlarida konveyer liniyasining qayta yuklash punkti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini konveyer tasmasini tog‘ jinslari bilan o‘zaro ta’siri tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda raqamli modellashtirish, nazariy umumlashtirish va tajriba o‘tkazish; tog‘ jinslarining konveyer tasmasi bilan o‘zaro ta’siri jarayonini modellashtirish, shuningdek, tadqiqot natijalarini matematik statistika va korrelyatsion tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tog‘ jisnlarini tashish samaradorligini oshirishda konveyer transportining qayta yuklash punktini chekli elementlar usuli asosida modellashtirish uslubi ishlab chiqilgan;

konveyer tasmasining deformatsiya-kuchlanish holati tenglamasi tasma harakati tezligi va qayta yuklash punkti bunkeri balandligiga bog‘liq ravishda bir va ikki omilli regression modellar yordamida asoslangan;

konveyer transportining ekspluatatsiya qilish parametrlarini optimallashtirishda tasmasining optimal kengligi va uning yuklanganlik hamda deformatsiya-kuchlanish holatiga qarab harakatlanish tezligi aniqlangan;

tog‘ jinslarining tasmaga urilish kuchini minimallashtirish orqali konveyerning qayta yuklash punktining geometrik parametrlarini optimallashtirish asosida bunkerning maqbul balandligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tog‘ jisnlarini tashish samaradorligini oshirish maqsadida chekli elementlar usuli asosida konveyer transportini qayta yuklash punktlarining optimal parametrlari aniqlangan;

ochiq kon ishlarida konveyer tasmasining ishonchligi va xizmat muddatini uzaytirish bo‘yicha konveyer transportining ekspluatatsion parametrlarini optimallashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi: raqamli modellashtirish asosida konveyer tasmasining tog‘ jinslari bilan o‘zaro ta’siri ANSYS dasturida nazariy

jihatdan isbotlangan; deformatsiya, deformatsiya tezligi va qiyalik burchagiga bog‘liq holda muhitning deformatsiya-kuchlanish holatini tajriba yo‘li bilan aniqlashda konveyer tasmasi elementlarining tog‘ jinslari bilan o‘zaro ta‘sirining fizik jarayoni dinamikasini matematik modellashtirish, konveyer transporti ekspluatatsiyasining optimal parametrlarining qoniqarli darajada mos kelishi va miqdoriy jihatdan tasdiqlash, shuningdek, qayta yuklash punktini loyihalashda ijobiy natijalarga erishilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati konveyer tasmasining tog‘ jinsi bilan o‘zaro ta‘sirini hisobga olgan holda konveyer transportining qayta yuklash punkti ishini baholash uslubini matematik modellashtirish asosida takomillashtirish; tog‘ jinsini tashish jarayonida tog‘ jinsining konveyer tasmasiga urilish kuchiga bog‘liq ravishda muhitning deformatsiya-kuchlanish holatini tadqiq qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati konveyer transportining qayta yuklash punktining optimal ekspluatatsiya parametrlarini va xossalarini aniqlash uchun chekli elementlar usulidan foydalanib, kuch ta‘sirida tasmaning deformatsiya-kuchlanish holati bo‘yicha ishlab chiqilgan kompleks uslub konveyer tasmasining xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ochiq kon ishlarida kon massasini tashishda tasmali konveyerning parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qayta yuklash punktining geometrik parametrlarini optimallashtirish asosida lentali konveyerdan bunkerning joylashuvini optimal parametrlarini aniqlash usuli “O‘zbekko‘mir” AJning Angren konida amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekko‘mir” AJning 2024-yil 6-sentyabrdagi 01-13/1665-son ma‘lumotnomasi). Natijada, konveyer transportini loyihalashda taklif etilayotgan uslub konveyer tasmasi elementlarining tog‘ jinsi bilan o‘zaro ta‘sirida fizik jarayonning dinamikasini baholash imkonini bergan;

tasmali konveyerni optimallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar “O‘zbekko‘mir” AJning Angren konida amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekko‘mir” AJning 2024-yil 6-sentyabrdagi 01-13/1665-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ochiq kon ishlarida konveyer tasmasining ishlash muddatini 30 %ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 1 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan. EHM uchun dasturiy mahsulotga 1 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha tavsiyalar, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda konveyer transportining texnologik sxemalarini qo‘llashning sharhi va tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida ochiq usulda qazib olishda foydali qazilmalarni tashish texnikasi va texnologiyasini tadqiq qilish bo‘yicha adabiyot ma‘lumotlarini tahlil qilish, konchilik korxonalarida konveyer transportini ishlatish jarayonining o‘ziga xosligi ochib berilgan.

Dunyodagi resurslar inqirozi transport xarajatlarining oshishiga olib keldi, bu esa kon massasini etkazib berishning yanada samarali aralash usullarini izlashni talab qildi. Bu muammolarni nazariy va amaliy nuqtai nazardan o‘rganish foydali qazilma va ustki bo‘sh tog‘ jinslarni qazishda konveyer transportidan foydalanishga intensiv o‘tishga olib keldi. Hozirgi vaqtda konveyer transporti foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishda ham keng qo‘llaniladi, bu kon massasini tashish xarajatlarini 30-40 %ga sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili natijasida shuni ta‘kidlash mumkinki, tog‘ jinslarini tashish jarayonida tasmali konveyer majmuasidan foydalanishni samarali optimallashtirish konchilik korxonalarini ishlab chiqarish quvvatini oshirishni ta‘minlovchi omil ekanligi ta‘kidlanadi. Shuningdek, tasmali konveyerdan foydalanishni optimallashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuklash-tushirish punktlari karyerda tasmali konveyerlar tizimining eng muhim nuqtalari hisoblanib, ularning to‘g‘ri ishlashi ko‘mir va boshqa tog‘ jinslarini optimal tashish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ochiq kon ishlarida konveyer tasmasining ishlash muddatini uzaytirishni ta‘minlashda matematik va raqamli modellashtirish usullari asosida konveyer transportini loyihalashning optimallashtirish masalalari mazkur muammo echimining asosiy yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Tasmali konveyerning tog‘ jinslari bilan o‘zaro ta‘sirining matematik modellashtirish uslubini ishlab chiqish**” deb nomlangan ikkinchi bobida tog‘ jinslarini tashish jarayonida raqamli modellashtirishning asosiy komponentlari va tadqiqot usullari o‘rganilgan.

Konveyer tasmasining optimal parametrlari va xossalari aniqlash uchun chekli elementlar usulidan foydalanib, kuch ta‘sirida tasmaning deformatsiyakuchlanish holati topiladi.

Bizning holatimizda deformatsiyalanadigan qattiq jismning umumiy energiyasining o‘zgarishi quyidagiga teng:

$$E_k = \frac{1}{2} \iiint \sigma_{ij} \varepsilon_{ij} dV \quad (1)$$

Guk qonunining komponentlari σ_{ij} ni topamiz:

$$\sigma_{ij} = [A][\varepsilon_{ij}]; \text{ Bu erda } [A] = \begin{pmatrix} \lambda + 2\mu & \lambda & \lambda & 0 & 0 & 0 \\ \lambda & \lambda + 2\mu & \lambda & 0 & 0 & 0 \\ \lambda & \lambda & \lambda + 2\mu & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \mu & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \mu & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & \mu \end{pmatrix}, \quad (2)$$

bu yerda: λ, μ -Lame parametri; σ_{ij} -kuchlanish komponenti; ε_{ij} -deformatsiya komponenti.

Bunday holda, umumiy kinetik energiya bizning holatimiz uchun quyidagilarga teng:


$$E_k = \frac{1}{2} \iiint \sigma_{ij} \varepsilon_{ij} dV = [A] * [B]^T * [u_{ij}]^T * [B] * [u_{ij}] dV = \int_0^1 \int_0^1 \int_0^1 [A] * [B]^T * [u_{ij}]^T * [B] * [u_{ij}] d\zeta * d\eta * d\theta; \quad (3)$$

Bunday holda, qattqlik matritsasi bitta element uchun bo'ladi.

$$k = \int_0^1 \int_0^1 \int_0^1 [B] * [A] * [B]^T * [u_{ij}] d\zeta * d\eta * d\theta, \quad (4)$$

bu yerda: k - qattqlik materialning matritsa koeffitsiyenti.

Hisob-kitoblar natijasida ma'lum bo'ldiki, alohida elementning tushishi ta'sir kuchidan kelib chiqqan kesilish (1-rasmda ko'rsatilgan) tasmaning 24 ta segmentini qamrab oladi.




1-rasm. Model: tasmaning asosiy qismi

ANSYS dasturiga asoslangan cheklangan elementlar usuli ish paytida tarmoqli konveyerning tez-tez uzilishi bilan bog'liq asosiy muammolardan birini aniqlash imkonini beradi, bu asosiy tasmaning strukturaviy-texnik xususiyatlari va ta'sir kuchi, bundan tashqari konveyer transportining qayta yuklash punktidan tog' jinsi tushishi tufayli

yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning **“Konveyer transportining qayta yuklash punktini matematik modelini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida konveyer transportining qayta yuklash punkti jarayoni o'rganiladi.

Tog‘ jinslarini tashish jarayonida konveyer tasmasining ishlatish parametrlarini optimallashtirish qazib olinadigan tog‘ jinslarining tannarxi bilan ham bog‘liq. Shu munosabat bilan konveyer transporti qayta yuklash punktlarining maqbul variantlarini modellashtirish, karyer unumdorligiga geologik, kon-texnik va tashkiliy omillarning ta‘sir darajasini aniqlash, mobil ekskavator-maydalash komplekslari unumdorligining karyerlarni qazib olish tizimi parametrlariga bog‘liqligini aniqlash, mobil maydalash qayta yuklash komplekslaridan foydalangan holda karyerlarning texnologik komplekslarini qo‘llash sohasini asoslash kabi turli jihatlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish zarurati yuzaga kelmoqda.




2-rasm. Qayta yuklash punkti modelining umumiy ko‘rinishi

Qayta yuklash jarayonining asosiy muammosi - katta balandlikdan tog‘ jinslarining bo‘laklari tushishi sababli asosiy konveyer tasmasi tez-tez uzilishidir.


O‘rganilayotgan konstruksiyaning eng maqbul balandligini aniqlash uchun uning 7,8 m dagi haqiqiy ko‘rsatkichlari (2-rasm) bunker va magistral tasmaning zarur materiallari va o‘lchamlarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqildi.

Grafikda (3-rasm) kuchlanishning maksimal qiymati yashil rang bilan, o‘rtacha qiymati ko‘k rang bilan, minimal qiymati qizil rang bilan belgilangan. Ushbu grafikka ko‘ra, maksimal kuchlanish 1,2037 MPa ga 2,275 sekundda erishiladi, bu esa konveyer tasmasining o‘z vaqtida ishlatilmasligiga olib keladi va uning ishonchligini pasaytiradi.

Konveyer bo‘ylab tog‘ jinsini 7,8 m balandlikdagi bunkerga vaqt bo‘yicha siljishining bog‘liqligi 4-rasmدا tasvirlangan.



3-rasm. Konveyer tasmasining kuchlanish-deformatsiya holati




4-rasm. Vaqt o‘tishi bilan balandligi 7,8 m bunker kuchlanishining o‘zgarishi grafigi


5-rasmدا tog‘ jinsi ko‘chishining vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi tasvirlangan. Bu yerda balandligi 7,8 m bunkerdan tasmaga tushish jarayonida uzunligi 8,04 metr bo‘lgandagi jinsining siljish masofasi ko‘rsatilgan.

Keltirilgan 6-rasm grafigida tog‘ jinsini balandligi 7,8 m bunkerdan tasmaga tushish kuchlanishi va tasma uzunligi 8,04 metrni, vaqti esa 2,275 sekundni tashkil etadi. Tasmadagi maksimal deformatsiya kuchlanishi 1,2037 MPa ga teng.

Biz kontakt paytida tasmaning deformatsiya-kuchlanganlik holatiga ta’sir qiluvchi tog‘ jinslari harakatining analitik hisobini o‘tkazdik.



5-rasm. Tog‘ jinsining konveyer tasmasiga balandligi 7,8 m bo‘lgan bunkerda vaqtga bog‘liqli ko‘chish grafigi



6-rasm. Tog‘ jinsi ta’sir qilganda tasmaning kuchlanish-deformatsiya holatining grafigi

Potensial energiya o‘z yo‘nalishidagi kuchlarning ta’sir holati deb qabul qilish mumkin:

$$E_p = \iiint_{(V)} [F][u]^T dV = \iint_{(S)} [F][u]^T h dS. \quad (5)$$

Agar kuchlar koordinatalar qonuniyati bo‘yicha o‘zgarmas bo‘lsa, u holda quyidagiga teng bo‘ladi:

$$E_p = [F][u]^T h * S. \quad (6)$$

Kastilyano teoremasiga ko‘ra, jismning ichki kinetik energiyasiga tashqi potensialning teng yarmi sarflanadi:

$$E_k = \frac{1}{2} E_p; \quad (7)$$

bunday holatda

$$\frac{h}{2} \left\{ \int_0^1 \left(\int_0^1 [\mathbf{b}]^T * [A] * [\mathbf{b}] d\xi \right) d\eta \right\} [\mathbf{u}]^T = \frac{1}{2} [F][u]^T h * S. \quad (8)$$

Bundan quyidagini olamiz:

$$\frac{1}{S} \int_0^1 \left(\int_0^1 [\mathbf{b}]^T * [A] * [\mathbf{b}] d\xi \right) d\eta * [\mathbf{u}] = [F]. \quad (9)$$

“AnsysWorkbench” dasturi yordamida aniq geometrik parametrlar asosida №3,7 va №3,8 konveyer liniyalari oralig‘ida joylashgan punktlarida konveyer transportining qayta yuklash bunkerining 3D modeli yaratildi. Qayta yuklash bunkerining konstruksiyalangan 3D modelining tahlili №3,8 magistral konveyer tasmasining uzilish sabablarini aniqlash imkonini berdi. Xususan, grafik va matematik hisob-kitoblar yordamida konveyer liniyasi yuklash punktining joylashish balandligi va bevosita konstruksiyaning geometrik ko‘rsatkichlari kabi ko‘rsatkichlar muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Ochiq kon ishlarida konveyer transportining ekspluatatsion parametrlarini optimallashtirish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Angren koni uchun konveyer transportini loyihalash bo‘yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, qayta yuklash punktlarining optimal balandligini aniqlash uning ishlash muddatini uzaytirish va ushbu konstruksiyani ta‘mirlash uchun harajatlarni kamaytirish imkonini beradi.


Eksperimentlar o‘tkazish jarayonida konveyer konstruksiyasi texnik uzellarining kavjoy va magistral konveyer liniyalarining optimal tezligini tanlash va uning optimal qiyalik burchagini to‘g‘ri o‘rnatish kabi boshqa parametrlari ham o‘rganildi va aniqlandi.

Angren ko‘mir konida konning ustki qatlamini ochish ishlarida tasmali konveyerni ishlatish jarayoni muammolari batafsil o‘rganildi va tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida qoplovchi tog‘ jinslarini tashishdagi asosiy muammolar №3,8 magistral liniya tasmasining turli sabablarga ko‘ra uzilishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar magistral tasmali konveyerning ish jarayonida tez-tez uzilishlarning asosiy muammolaridan birini aniqlash imkonini berdi. Bu bevosita magistral tasmaning o‘zining tuzilish va texnik xususiyatlari va konveyerning qayta yuklash bunkeridan tushadigan tog‘ jinsining zarba kuchi bilan bog‘liqdir. Aniqlangan muammolarning sabablarini aniqlash maqsadida tasmali konveyerning ishlash jarayoni uning texnik parametrlarini, ya‘ni tasma tezligi, qattqlik darajasi va tog‘ jinsining tasmaga tushish burchagi, shuningdek, bunkerning balandligi 7,8; 5,4; 3,5 metr bo‘lgan konstruksiyani “ANSYS” dasturi asosida tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, asosiy muammolardan biri bunkerning balandligi bilan bog‘liq. Bunkerning optimal balandligini aniqlash № 3,8-sonli magistral konveyer tasmasining tez-tez uzilishining oldini olish imkonini beradi. Bunda qayta yuklash bunkerini konstruksiyasining samaradorligi oshadi.

Bizning tahlilimiz quyidagilarni ko‘rsatdi:

7,8 metr balandlikdagi bunkerdan, asosiy chiziqqa tushgan tog‘ jinsi ta‘sir kuchining kuchlanishi natijalari 1,2037 MPa;

5,4 metr balandlikdagi bunkerdan, asosiy chiziqqa tushgan tog‘ jinsi ta‘sir kuchining kuchlanishi natijalari 0,43393 MPa;



7-rasm. 5,4 metr balandlikka ega qayta yuklash bunkerini


3,5 metr balandlikdagi bunkerdan, asosiy chiziqqa tushgan tog‘ jinsi ta‘sir kuchining kuchlanishi natijalari 0,48341 MPa ni tashkil etdi.

Quyidagi tasvirda tog‘ jinsining magistral lenta liniyasiga tushishida yuzaga keladigan kuchlanishlar va deformatsiyalar ko‘rsatilgan (7-rasm).

Tasvirda tog‘ jinsining yuk ko‘taruvchi yuzasi markazida hosil bo‘lgan kuchlanish qiymati rangli yo‘llar bilan

ifodalangan. Bu yerda har bir rang turli xil kuchlanish ta'sirini aks ettiradi. Eng kam yuklanishga ega bo'lgan qismlar ko'k rangda, eng ko'p yuklanishga ega bo'lgan qismlar esa qizil rangda ko'rsatilgan. Maksimal kuchlanish ta'sir qiladigan yuza tasma uchun kritik zona hisoblanadi.

8-rasmda balandligi 5,4 m bo'lgan modellashtirilgan bunkerda 143,17 kg massali tog' jinsi tomonidan 5 m/s boshlang'ich tezlik bilan 5,5 m/s tezlikda harakatlanayotgan tasmali konveyerga ko'rsatilgan kuchlanishning vaqt bo'yicha o'zgarishi tasvirlangan. Yashil chiziq - maksimal qiymat, ko'k chiziq - o'rtacha qiymat, qizil chiziq - minimal qiymat. Tasmaning maksimal tarangligi 1,54 soniya vaqt momentida yuzaga kelgan (9-rasm).




8-rasm. Tog' jinslari harakatining tasma kuchlanishiga ta'siri grafiği

	Time [s]	Minimum [m]	Maximum [m]	Average [m]
1	1,1755e-038	0,	0,	0,
2	0,14002	0,	0,70011	0,14707
3	0,28004	0,	1,4002	0,28259
4	0,42001	0,	2,1	0,41772
5	0,56002	0,	2,8001	0,56254
6	0,70004	0,	3,5002	0,72485
7	0,84001	0,	4,2672	0,87674
8	0,98002	0,	4,9001	0,84744
9	1,12	0,	5,6002	0,82921
10	1,26	0,	6,3001	0,84981
11	1,4	0,	7,0001	0,90565
12	1,54	0,	7,3875	0,95885
13	1,68	0,	6,6177	0,99725
14	1,82	0,	5,8476	1,0315
15	1,96	0,	5,5972	1,0997
16	2,1	0,	5,8016	1,1292
17	2,24	0,	5,937	1,1394
18	2,38	0,	6,1833	1,1681
19	2,52	0,	6,2094	1,1697
20	2,66	0,	6,0904	1,1637
21	2,8	0,	6,2078	1,1603

9-rasm. 5,4 m balandlikdagi tog' jinsi bilan o'zaro ta'sir qilishda tasma tarangligi natijalari

Yuqoridagi grafikda 143,17 kg tog' jinsining ko'chishi 8,4649 metr masofani bosib o'tganini va 2,1 soniya ichida tasma 10,868 mm deformatsiyaga uchraganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat balandligi 5,4 m bo'lgan bunker, tanlangan tasma va biz modellashtirgan bunkerlar orasidagi tasmaning harakati uchun eng maqbul variant hisoblanadi (10- va 11-rasmlar).




10-rasm. Tog' jinslari ta'sirida tasma deformatsiyasi grafiği

	Time [s]	Minimum [m]	Maximum [m]	Average [m]
1	1,1755e-038	0,	0,	0,
2	0,14002	-3,8656e-007	3,4533e-007	-1,8457e-008
3	0,28004	-3,744e-007	3,2253e-007	-1,8449e-008
4	0,42001	-3,8278e-007	3,3538e-007	-1,9458e-008
5	0,56002	-3,8223e-007	3,3658e-007	-1,7768e-008
6	0,70004	-3,6991e-007	3,3771e-007	-1,877e-008
7	0,84001	-3,6973e-007	3,494e-007	-1,9045e-008
8	0,98002	-3,7778e-007	3,3122e-007	-1,8427e-008
9	1,12	-3,7652e-007	3,6037e-007	-1,7279e-008
10	1,26	-3,605e-007	3,8158e-007	-1,8477e-008
11	1,4	-3,5797e-007	3,3301e-007	-1,9476e-008
12	1,54	-3,7166e-007	3,4941e-007	-1,8137e-008
13	1,68	-3,6512e-007	3,3242e-007	-1,7872e-008
14	1,82	-3,7348e-007	3,3487e-007	-1,878e-008
15	1,96	-3,6453e-007	3,4805e-007	-1,8444e-008
16	2,1	-1,0711e-003	1,0868e-003	1,0469e-008
17	2,24	-4,0248e-004	4,0456e-004	-3,0996e-008
18	2,38	-2,6236e-004	2,6287e-004	-5,8731e-008
19	2,52	-2,0779e-004	2,0849e-004	-7,2047e-008
20	2,66	-1,7986e-004	1,7831e-004	-8,0059e-008
21	2,8	-1,6591e-004	1,6473e-004	-8,4207e-008

11-rasm. 5,4 m balandlikdagi bunker tog' jinslari bilan aloqa qilganda tasma deformatsiyasining natijalari

12-rasmda tog' jinsining vaqt davomida ko'chishining o'zgarishlari tasvirlangan. Bunda bunkerning 5,4 metr balandligidan tasmaga tushayotgan tog' jinsining siljish masofasi 8464,9 mm ni tashkil etadi.



12-rasm. 5,4 m balandlikdagi bunkerdagi tog' jinsi harakati natijalari grafigi


1-jadvalda logarifmik modelga moslashtirish uchun MathCAD dasturida tasma tezligi funksiyasidan foydalanish ko'rsatilgan.

1-jadval.

Qayta yuklash punkti bunkerining turli balandliklariga bog'liq ravishda tasmaning deformatsiya-kuchlanish holati

Konveyer liniyasi tezligi	Bunker balandligi		
	3,5 m	5,4 m	7,8 m
6-6,6 m/s	5,461 Mpa	4,421 MPa	7,387 MPa
3,15-4 m/s	5,161 Mpa	4,339 MPa	6,881 MPa
5-5,6 m/s	0,483 Mpa	0,433 MPa	1,203 MPa

Ushbu tadqiqotlar natijalariga asoslanib, 13-rasmda tasmaning kuchlanish - deformatsiya holatining vaqt birligida bunkerdan tasmaga tushishi turli balandliklarga bog'liqligi ko'rsatilgan.



13-rasm. Tasmaning deformatsiya-kuchlanish holatining tog' jinsi massasining tushish balandligiga bog'liqligi grafigi

Turli tezlikdagi tasmalar uchun bunkerlar balandligiga bog‘liq holda tasmaning deformatsiya-kuchlanish holatini aniqlash formulalarini ishlab chiqildi:

$$\sigma = \begin{cases} 0,415h^2 - 4,238h + 15,215, & \text{tezlik } v = 6 - 6,6 \frac{m}{s} \text{ bo'lganda} \\ 0,347h^2 - 3,52h + 13,232 & \text{tezlik } v = 3,15 - 4 \frac{m}{s} \text{ bo'lganda} \\ 0,081h^2 - 0,745h + 2,101 & \text{tezlik } v = 5 - 5,6 \frac{m}{s} \text{ bo'lganda} \end{cases} \quad (10)$$

Qayta ishlash orqali olingan σ - h kvadratik bog‘lanish formulalari MathCAD dasturining linfit tizimi yordamida ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, qayta yuklash punkti bunkerining turli balandliklarida tasma tezligining o‘zgarishiga qarab tasmaning deformatsiya-kuchlanish holatini aniqlash masalasini ham ko‘rib chiqildi. Buning uchun bir omilli regression model tuzildi. Ya’ni, masala quyidagi tenglamalar tizimini yechishga keltiriladi:

$$\begin{bmatrix} 1 & v_0 & v_0^2 \\ 1 & v_1 & v_1^2 \\ 1 & v_2 & v_2^2 \end{bmatrix} \cdot \begin{bmatrix} a_0 \\ a_1 \\ a_2 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} \sigma_0 \\ \sigma_1 \\ \sigma_2 \end{bmatrix}. \quad (11)$$

Olingan natijalarga ko‘ra (1-jadval), konveyerning chiziqli tezligi o‘zgarishiga qarab, bunkerning turli balandliklari uchun tasma kuchlanishi qiymatlarini aniqlash va tenglamani yechish imkonini beradigan bog‘lanish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\sigma = \begin{cases} 2,940v^2 - 31,049v + 82,316, & h = 3,5m \text{ bo'lganda} \\ 1,277v^2 - 11,827v + 26,851, & h = 5,4m \text{ bo'lganda} \\ 3,575v^2 - 37,707v + 100,501, & h = 7,8m \text{ bo'lganda} \end{cases} \quad (12)$$



Quyidagi ikki omilli korrelyatsiya funksiyasini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} \sigma = & 0,013h^2v + 0,173hv^2 + 592,547v^3 + \\ & + 0,207h^2 - 1,974hv - 9538v^2 \\ & + 2,570h + 50167,8 - 85975,509 \end{aligned} \quad (13)$$

Ushbu funksiyani qo‘llanilganda, tasmadagi kuchlanish miqdori bunker balandligi (h) va konveyer tezligi (v) ning turli o‘zgarishlari uchun yagona qiymatda aniqlanadi. Fisher mezonining aniqlik darajasi (13) funksiya uchun $P=0,93 \div 0,96$ ni tashkil etadi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida qayta yuklash punkti bunkerining turli balandliklarida konveyer tasmasining deformatsiya-kuchlanish holati tasma tezligiga bog‘liq ravishda qanday o‘zgarishi aniqlandi (14-rasm).

Konveyer tizimining ishonchli va iqtisodiy jihatdan samarali ishlashini ta’minlovchi materiallar va komponentlarni to‘g‘ri tanlash hamda energiya sarfini samarali boshqarishning qo‘llanilish samaradorligini isbotlovchi texnik-iqtisodiy hisob-kitob natijalari olingan.



14-rasm. Bunkerning balandligiga va konveyer tezligiga qarab tasmaning deformatsiya-kuchlanish holatining o‘zgarish grafigi

Uskunaning optimal ishlashi uchun texnik parametrlar va iqtisodiy omillarni hisobga olish muhimdir, chunki bu qayta yuklash punkti konstruksiyasining optimal parametrlarini aniqlash va konveyer tasmasini ishlash muddatini uzaytirishga imkon beradi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida 2024-yil narxlarida 868,95 million so‘mlik iqtisodiy samara olingan.

XULOSA

“Angren ko‘mir konida konveyer transportini ekspluatatsiya qilish parametrlarini optimallashtirish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tasmali konveyerning ekspluatatsion parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, qayta yuklash punktlari karyerdagi tasmali konveyerlar tizimining eng muhim nuqtalari hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri ishlashi kon massasini optimal tashish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Tog‘ jinslarini tashish jarayonida qayta yuklash punktini matematik modellashtirish uslubi ishlab chiqildi. Bu uslub cheklangan elementlar usuliga asoslangan bo‘lib, konveyer tasmasining tog‘ jinslari bilan o‘zaro ta‘sirini haqiqiy ekspluatatsiya parametrlari orqali eksperimental sharoitlarda o‘rganish imkonini beradi.

3. ANSYS dasturi asosida o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijasida quyidagi ma‘lumotlar aniqlandi: tasma tog‘ jinsi bilan aloqaga kirganda, o‘zaro ta‘sir hududidagi deformatsiya ko‘rsatkichlari tasmaning tezligi 5-5,5 m/s bo‘lganda 2,07 soniya davomida 0,433 MPa zarbiy kuchlanishni ko‘rsatadi. Bu esa tasmaning xizmat muddatini 30 %ga uzaytirish imkonini beradi.

4. Konveyer transporti qayta yuklash nuqtasining geometrik parametrlarini optimallashtirish asosida, balandligi 5,4 metr bo‘lgan tasmali konveyer bunkeri kon massasining konveyer tasmasiga tegishida minimal yuklamalarni ta‘minlay olishi aniqlandi.

5. ANSYS dasturiy majmuasidan foydalangan holda, bunkerning optimal balandligiga ega bo'lgan qayta yuklash punktining konstruksiyasi ishlab chiqildi va modellashtirildi. Bu konstruksiya qimmatbaho loyihalarni dastlabki loyihalashga nisbatan eng maqbul texnik va iqtisodiy natijalarga erishish imkonini beradi.

6. Konveyer tasmasining kuchlanganlik holati tasmaning harakat tezligi va qayta yuklash punkti bunkerining balandligiga bog'liqligi bir va ikki omilli regression modellar yordamida aniqlandi.

7. Ochiq kon ishlarida konveyer lentasining xizmat muddatini oshirish maqsadida, kon jinsining tasmaga urilish kuchini kamaytirishga asoslangan holda, konveyerning qayta yuklash nuqtasining geometrik parametrlarini optimallashtirish orqali bunkerning eng maqbul balandligi aniqlandi.

8. "Angren" ko'mir konida joriy etilgan konveyer transporti qayta yuklash punktining ekspluatatsion parametrlarini optimallashtirish asosida optimal bunker parametrlarini aniqlash uslubi ishlab chiqildi. Natijada, konstruktorlik ishlarini loyihalashning taklif etilayotgan uslub konveyer tasmasi elementlarining tog' jinsi bilan o'zaro ta'sirlashuv fizik jarayoni dinamikasini baholash imkonini berishi aniqlandi. Bu esa qayta yuklash punkti konstruksiyasining optimal parametrlarini aniqlash va konveyer tasmasining xizmat muddatini uzaytirishni ta'minlaydi. Natijada 2024-yil narxida 868,9 million so'mlik iqtisodiy samara olishga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22/30.12.2019.Т.98.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФИЛИАЛЕ НАЦИОНАЛЬНОГО
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА «МИСИС» В г. АЛМАЛЫК**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
им. ИСЛАМА КАРИМОВА**

БАЙНАЗОВ УМИД РАИМОВИЧ

**ОПТИМИЗАЦИЯ ЭКСПЛУАТАЦИОННЫХ ПАРАМЕТРОВ
КОНВЕЙЕРНОГО ТРАНСПОРТА НА УГОЛЬНОМ РАЗРЕЗЕ
«АНГРЕНСКИЙ»**

04.00.16 – Горные машины

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Алмалык – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.2.PhD/T2818.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.misis.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Тошов Жавохир Буриевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Рахутин Максим Григорьевич
доктор технических наук, профессор

Махмудов Азамат Махмудович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат»

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в «__» часов на заседании Научного совета DSc.22/30.12.2019.T.98.01. (Адрес: 110101, г. Алмалык, ул. Амира Темура 56. Зал заседаний Национального исследовательского технологического университета «МИСИС» в г. Алмалык. Тел.: (70) 614-22-57; e-mail: afnitumisis@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Филиала Национального исследовательского технологического университета «МИСИС» в г. Алмалык (зарегистрирован за № _____). Адрес: 110101, г. Алмалык, ул. Амира Темура, 56. Тел.: (70) 614-22-57.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от _____ 2025 года).

Ф.Я. Умаров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Г.С. Нутфуллаев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

Ш.Ш. Заиров

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Широкое применение угля в энергетике, химии, медицине и других областях, приводит к увеличению спроса на угольную продукцию в мире. Это и является одной из приоритетных задач в развитии данной отрасли горной промышленности, по качественной добыче, снижении себестоимости и повышении конкурентоспособности продукции на мировом рынке. В настоящее время общие геологические запасы угля в мире составляют 14-16 триллионов тонн, из которых разведанные – более 5 триллионов тонн. Добыча угля осуществляется в основном открытым способом, а процесс транспортировки горных пород при этом способе добычи является дорогостоящей технологией, что приводит к увеличению себестоимости продукции. Важное значение имеет решение задач, связанных с повышением качества транспортировки угля и применения энергосберегающих технологий, а также решение вопросов по проектированию процессов транспортировки.

На сегодняшний день в мировой практике ленточный конвейер является самым экономичным транспортным средством при транспортировке горных пород. Однако из-за ряда проблем, связанных с его эксплуатацией, в последние десятилетия ряд горнодобывающих предприятий вынуждены перейти на железнодорожный или автомобильный транспорт с низкой производительностью и высокими эксплуатационными расходами. Ведутся научные исследования по совершенствованию процесса транспортировки горных пород, повышению эффективности и снижению производственных затрат. В связи с этим особое внимание уделяется применению энергосберегающей техники и технологий при транспортировке горных пород, оптимизации эксплуатационных показателей, внедрению передовых методов их проектирования, использованию современного программного обеспечения.

В Республике достигнут ряд научно-практических результатов благодаря внедрению передовых научно-обоснованных мероприятий по применению энергосберегающих и эффективных методов разработки Ангреновского, Байсунского и Шаргунского угольных месторождений. Это включает в себя создание новых технологий повышения энергоэффективности, реализацию инвестиционных проектов, увеличению объемов производства и поставок угля и угольной продукции, а также повышение эффективности использования современных горных и перерабатывающих машин и оборудования при снижении производственных затрат. Соответствующим указом Президента Республики Узбекистан в стратегии "Узбекистан - 2030" определены такие важные задачи, как "... эффективное использование местной сырьевой базы и развитие промышленности, основанной на передовых технологиях."¹ Исходя из этих задач, современные информационные методы, учитывая требования к

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 "О Стратегии «Узбекистан – 2030»"

сбалансированности скорости, устойчивости и долговечности транспортировки горных пород.

